Xulosa. Badiiy adabiyotda hayvon obrazining ramziy darajada talqin etilishi inson va hayvon o‘rtasidagi murakkab va ko‘p qirrali munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu ramziylashuv orqali muallif inson va hayvon o‘rtasida shakllangan ruhiy, emotsional hamda psixologik bog‘liqlikni ochib beradi. Shuningdek, bo‘ri va mushuk obrazlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, insonning ichki kechinmalari va axloqiy tanlovlari bilvosita, ammo ta’sirchan tarzda ifodalanadi. Shu sababli hayvon obrazlari adabiy matnda muhim semantik va estetik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ашурова Ш.А. Инглиз адабиёти ва ўзбек адабиётида анималистика жанри хусусиятлари (Э.Сетон-Томпсон ва Н.Норқобилов ижоди мисолида). Фалс. докт. (PhD) дисс., Тошкент, 2020, 30-бет.

(2). Горький М. Адабиёт ҳақида. Тошкент, 1962, 10-бет.

(3). Худойбердиева М.А. Сравнительный этнолингвокультурологический анализ концепта «волк» в среднеазиатском информационном пространстве. Магистр. дисс., Джизак, 2023, 53 с.

(4). Липец Р. Образ батыра и его коня в тюрко-монгольском эпосе. М., “Наука”, 1984, 124 с.

(5). López E. Aquí hay gato encerrado: Intertextualidad entre Takashi Hiraide y Juan García Ponce. Enunciación. 2025, vol. 30, № 1, p. 45–60. DOI: 10.14483/22486798.22817.

(6). Ochilova N.O. Inglizzabon g‘arb va o‘zbek nasrida ot obrazi talqini (Seton Thompson, Anna Syuvell, Tog‘ay Murod, Turob To‘la asarlari asosida): filol. fan. bo‘yicha PhD diss., Buxoro, 2022, 26-bet.

(7). Poe E. Cuentos. Tarj. G.Martínez, D.Martín. Barcelona, Planeta, 2007.

(8).Rajabov E. Obraz tushunchasining badiiy talqini (“Haj daftari” misolida). Теоретические аспекты становления педагогических наук. 2025. № 4 (13), с. 28–32. URL: https://inlibrary.uz/index.php/tafps/article/view/98800

(9). Tilavov A. O‘zbek xalq dostonlaridagi ot obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini. Filol. fan. nomz. diss. Toshkent, 2000, 14-bet.

(10). Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2000, 1-жилд, 345-бет.

(11). Улджаева Ш. Тотем волка [электрон манба]. URL:https://sw-ke.facebook.com (мурожаат санаси: 20.01.2026).

(12). Wallner A. The role of fox, lynx and wolf in mythology. Workshop on Human Dimension in Large Carnivore Conservation: Contributions to the Workshop, 26.11.1997, Landshut, Switzerland (KORA Bericht Nr. 3). 1998.

(13). Bukowick K.E. Truth and symbolism: Mythological perspectives of the wolf and crow: Electronic thesis or dissertation. Boston College, 2004, 61 p. URL:http://hdl.handle.net/2345/489

(14). Wolf as a symbol in the cultures of the world [Electronic resource]. URL: https://wolf.ua/ru/blog/volk-kak-simvol-v-kulturah-raznyh-narodov-mira/ (date of access: 20.01. 2026).

(15). Tylor E.B. Primitive Culture: Researches into the Development of Mythology, Philosophy, Religion, Art, and Custom. London, John Murray, 1871, 2 vols.

Mallayeva Mamura Abduraxmanovna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Hozirgi zamon rus tili” kafedrasi o‘qituvchisi; mamurmallayeva@mail.com)

ADABIYOTSHUNOSLIKDA “KICHKINA ODAM” TUSHUNCHASINING SHAKLLANISH TARIXI

Annotatsiya. *Maqolada “kichkina odam” tushunchasining adabiyotshunoslikdagi nazariy asoslari va adabiy talqinlari tahlil qilinadi. Rus, ingliz va o‘zbek adabiyotlarida bu obrazning shakllanish bosqichlari, ijtimoiy va psixologik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Pushkin, Gogol, Chexov, Dostoyevskiy, Mansfield va Qahhor asarlarida “kichkina odam”ning fojiaviy taqdiri, ijtimoiy tengsizlik va insoniy fazilatlar bilan kurashi yoritiladi. Obraz adabiyotda insonparvarlik, ijtimoiy tanqid va axloqiy qadriyatlar ifodasi sifatida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *kichkina odam, adabiy tip, rus realizmi, ijtimoiy tengsizlik, psixologik tahlil, estetik funksiya, G‘arb adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, insonparvarlik, axloqiy konflikt, ekzistensial iztirob, ijtimoiy ong, adabiy tipologiya.*

Маллаева Мамура Абдурахмановна (преподаватель кафедры современного русского языка Узбекского государственного университета мировых языков; mamurmallayeva@mail.com)

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПОНЯТИЯ «МАЛЕНЬКИЙ ЧЕЛОВЕК» В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Аннотация. *В статье анализируются теоретические основы и литературные интерпретации понятия «маленький человек» в литературоведении. Рассматриваются этапы формирования, социальные и психологические характеристики данного образа в русской, английской и узбекской*

литературе. В произведениях Пушкина, Гоголя, Чехова, Достоевского, Мэнсфилд и Каххара изображается трагическая судьба «маленького человека», его борьба с социальной несправедливостью и моральными испытаниями. Образ трактуется как символ гуманизма, социальной критики и нравственных ценностей.

Ключевые слова: *маленький человек, литературная типология, русский реализм, социальное неравенство, психологические страдания, гуманизм, нравственный конфликт, экзистенциальная критика, образ в литературе, моральные ценности.*

Mallayeva Mamura Abduraxmanovna (Teacher at the Department of Modern Russian Language, Uzbek State University of World Languages; mamurmallayeva@mail.com)

THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE CONCEPT OF THE "LITTLE MAN" IN LITERARY STUDIES

Annotation. *The article analyzes the theoretical foundations and literary interpretations of the concept of the "little man" in literary studies. The formation stages, social and psychological characteristics of this image in Russian, English, and Uzbek literature are examined. In the works of Pushkin, Gogol, Chekhov, Dostoevsky, Mansfield, and Qahhor, the tragic fate, social inequality, and moral struggle of the "little man" are portrayed. This image is interpreted in literature as a symbol of humanism, social criticism, and ethical values.*

Keywords: *little man, literary typology, Russian realism, psychological suffering, social inequality, human dignity, realism, existential criticism, moral conflict, artistic image, socio-historical context.*

Kirish. "Kichkina odam" tushunchasi adabiyotshunoslikda muhim ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida qaraladi. U XIX asr rus realizmida shakllanib, keyinchalik jahon adabiyoti doirasida ham keng miqyosda qabul qilingan. Ushbu tushuncha asosan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy iyerarxiyada past pog'onada turgan, hayotda o'z o'rnini topa olmaydigan, biroq ichki dunyosi boy, hissiyotlarga boy shaxslarni ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tarixiy-estetik manbalar oladigan bo'lsak "Kichkina odam" obrazi dastlab rus adabiyotida – A.S.Pushkinning "Stansiyona nadziratel" (1831) va N.V.Gogolning "Shinel" (1842) asarlarida nazariy jihatdan asoslanadi. Bu obrazlar orqali yozuvchilar past tabaqaning ichki dunyosini, uning jamiyatdagi beqaror va zaif mavqeyini ochib beradi.

Nazariy jihat qaraganda, adabiyotshunoslikda "kichkina odam" (рус. маленький человек) degan ibora XIX asr rus realizmi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ijtimoiy pog'onaning quyi qatlamlariga mansub, ijtimoiy tengsizlik, xo'rlik, jamiyatdagi adolatsizlik qurboni sifatida tasvirlangan obrazni anglatadi. Bu obraz o'ziga xos ijtimoiy-psixologik fenomen bo'lib, realizmning insonparvarlik ruhini yuksaltiruvchi vositasi hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda qahramonlarning tipologiyasi bu asardagi obrazlarning ijtimoiy, axloqiy va estetik funksiyalarini aniqlashga yordam beradigan konseptual vositadir. "Kichkina odam" obrazi ham aynan shunday ijtimoiy-tarixiy zarurat asosida shakllanadi. Bu obraz, ko'pincha, pastki ijtimoiy qatlamlarga mansub, mansab, boylik yoki ta'sir kuchiga ega bo'lmagan, biroq ruhiy olami boy, murakkab ichki kechinmalar dunyosiga ega qahramon sifatida namoyon bo'ladi.

Tushunchaning sotsiologik qirralari ijtimoiy tengsizlik sharoitida inson shaxsining dehumanizatsiya jarayonini ko'rsatadi. Psixologik yondashuvda esa "kichkina odam" ichki iztirob, ikkilanish, xoru zorlik holatlari bilan namoyon bo'ladi. Adabiy tip sifatida esa u yozuvchining insonparvarlik, adolat, rahm-shafqat g'oyalarini yetkazish vositasiga aylanadi. Bu ijtimoiy tip, odatda, quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

- past ijtimoiy mavqe (xizmatchi, muallim, kichik amaldor va h.k.);
- jamiyatning zo'ravonlik, befarqlik va loqaydligiga uchrashi;
- ichki axloqiy fazilatlarning ustunligi (mehribonlik, sadoqat, kamtarlik);
- fojiaviy taqdirning muqarrarligi.

Adabiyotshunoslikda ijtimoiy tip tushunchasi bu muayyan tarixiy davr, sinfiy tuzilma va madaniy kontekst bilan bog'liq holda vujudga kelgan obrazlardir. V.Belinskiy va G.Plexanov ijtimoiy tipni real voqelikning badiiy umumlashmasi sifatida ko'rsatganlar.

"Kichkina odam" bu passiv, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etmaydigan, biroq bu passivligi orqali jamiyatdagi bevosita adolatsizlikni ko'rsatadigan obrazdir. U ijtimoiy kritikani kuchaytiradi.

Estetik va ideologik vazifalari orqali yozuvchilar muayyan davr jamiyatining axloqiy, siyosiy va ijtimoiy kamchiliklarini fosh qilganlar. Obraz, bir tomondan, achinish uyg'otsa, ikkinchi tomondan, tizim tanqidini kuchaytiradi.

“Kichkina odam” tushunchasi bu faqat adabiy obraz emas, balki ijtimoiy ongda chuqur ildiz otgan, realizm estetikasida muhim o‘rin egallagan ijtimoiy tipdir. U orqali yozuvchi jamiyatdagi tengsizlik, adolatsizlik va insoniylik masalalarini ochib beradi. Ushbu tipning nazariy asoslari ijtimoiy strukturaviy farqlar, sinfiy ong va psixologik reallik bilan bevosita bog‘liqdir.

Nazariy izoh beradigan bo‘lsak, bu bosqichda “kichkina odam” hali to‘la ijtimoiy tip darajasiga ko‘tarilmagan, ammo u ilk bor markaziy obraz sifatida tasvirlana boshlagan. Asosan, insoniy fazilatlar, axloqiy tozalik va fojiali taqdirga urg‘u berilgan.

Rus adabiyoti kontekstida “маленький человек” atamasi allaqachon klassik termin sifatida tan olingan. XVIII asr sentimentalizmidagi ilk shakllanishlarni biz “Kichkina odam” obrazi sifatida birinchi namunalarni N.M.Karamzinning “Bechora Liza” (1792) qissasida ko‘rishimiz mumkin. Liza – oddiy dehqon qizi, ijtimoiy tengsizlik qurboni bo‘lib, uning fojiasi jamiyatdagi axloqiy me’yorlarning buzilishi natijasidir. Agar A.S.Pushkinning – “Stansioniy nadziratel” (1831) asarini oladigan bo‘lsak, bu asarda Samson Virin o‘z zamonasining ko‘plab oddiy, e’tiborsiz qolgan, huquqsiz kishilarining umumlashgan timsolidir. Pushkin uni alohida fojiali holatda emas, balki real ijtimoiy holatning mahsuli sifatida tasvirlaydi. «Men oddiy stansioniy nadziratel’man, mening qadrim yo‘q, meni urishadi, haqorat qilishadi…». Bu asar orqali Pushkin, keyinchalik, Gogol, Dostoyevskiy, Chexov asarlarida mukammal darajada shakllanadigan ijtimoiy zaif, huquqsiz, biroq chuqur insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan qahramon tipini maydonga olib chiqadi. “Kichkina odam” bu yerda real ijtimoiy qatlamning badiiy tipik ifodasidir.

Yozuvchilarning ijodiga nazar soladigan bo‘lsak N.V.Gogol – “kichkina odam” tipining tiplashuv bosqichi bo‘laoldi. Nikolay Gogolning “Shinel” (1842) asarida Akakiy Akakiyevich obrazi klassik “kichkina odam”ning timsoliga aylangan. Uning hayoti va fojiasi nafaqat ijtimoiy tengsizlik, balki befarqlik, sovuq byurokratiya va insoniylikning yo‘qolgan muhitini ochib beradi.

“**Kichkina odam**” obrazi XIX asrning ikkinchi yarmida ham adabiyotdan yo‘qolib ketmadi, u Chexov qahramonining asosiy tipi bo‘lib qoldi. A.P.Chexov “kichkina odam” konsepsiyasini yanada chuqur psixologik hamda ekzistensial darajaga ko‘tardi. Chexov ijodida “kichkina odam” psixologik, ekzistensial mazmunga ega bo‘laoldi. “Qo‘rqoqlar”, “Zamena”, “Yangi lavozimda” kabi hikoyalarda Chexov qahramonlari jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmaydigan, ichki va tashqi iztiroblar bilan kurashayotgan, biroq tub mohiyatida insoniy fazilatlarini yo‘qotmagan oddiy shaxslardir. Chexov ijodida “kichkina odam” endi ijtimoiy tipdan ko‘ra ko‘proq psixologik tipga aylanadi. Dramaturg shuni ko‘rsatishga intiladiki, bu tor doirada fikrlovchi odamlar jamiyatning har xil tabaqalarida mavjud. Chexov maktabi “kichkina odam” ni faqat ijtimoiy emas, balki ma’naviy va axloqiy inqirozda ham ko‘rsatdi.

XX asr G‘arb adabiyotida Katherine Mansfield tomonidan ham “kichkina odam” obrazi tasvirlangan. Katherine Mansfieldning “The Life of Ma Parker” (1921) hikoyasi XX asr boshidagi ingliz adabiyotida “kichkina odam” obrazining psixologik chuqurlikda talqin etilgan yorqin namunalaridan biridir. Bu hikoya shahar proletariatining eng zaif qatlamiga mansub, kundalik hayotda ko‘zga tashlanmaydigan, biroq murakkab ichki hayot kechirayotgan qahramon Ma Parkerning taqdirini tasvirlaydi. Xususan, Mansfieldning “Ma Parker hayoti” hikoyasida befarqlik, beparvolik muhitida yashayotgan keksa xizmatchi ayolning iztiroblari ruhiy chuqurlikda aks ettiriladi.

O‘zbek adabiyotida A.Qahhor ijodida milliy mentalitetga moslashtirilgan “kichkina odam” obrazlari mavjud. Qahhorning “Qo‘shni” hikoyalaridagi qahramonlar befarqlik, qo‘rqoqona murosa va jamiyatdagi urf-odatlarning bosimiga tushgan oddiy insonlardir. A.Qahhor o‘zining ijtimoiy-psixologik hikoyalarida xalqning oddiy vakillarini – hayot tashvishlari, ma’naviy iztiroblari, jamiyatdagi zaif mavqelari bilan ko‘rsatish orqali o‘zbek adabiyotida “kichkina odam” obrazini shakllantirgan yozuvchilardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola adabiyotshunoslikning zamonaviy metodologik tamoyillariga tayangan holda olib borildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida tarixiylik, tizimlilik va insonparvarlik prinsiplari qabul qilindi. “Kichkina odam” tushunchasi ijtimoiy-psixologik va estetik fenomen sifatida dialektik yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida umumilmiy metodlar – tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, umumlashtirish va tasniflash usullaridan keng foydalanildi. Ushbu metodlar “kichkina odam” obrazining shakllanish jarayoni, rivojlanish bosqichlari va uning adabiy tip sifatida mustahkamlanishini aniqlashga xizmat qildi.

Maqolaning asosiy metodologik yadrosini xususiy adabiyotshunoslik metodlari tashkil etadi. Xususan,

– tarixiy-adabiy metod orqali “kichkina odam” obrazining XVIII–XIX asr rus adabiyotidagi paydo bo‘lishi va keyingi evolutsiyasi o‘rganildi;

– qiyosiy-tipologik metod yordamida rus (Pushkin, Gogol, Chexov), ingliz (K.Mansfield) va o‘zbek (A.Qahhor) adabiyotlaridagi “kichkina odam” obrazining umumiy va milliy xususiyatlari taqqoslab tahlil qilindi;

– strukturaviy-semantik tahlil asosida obrazlarning ijtimoiy mavqeyi, psixologik holati va badiiy funksiyasi ochib berildi.

Shuningdek, tadqiqotda sotsiologik va psixologik yondashuvlardan foydalanildi. Sotsiologik yondashuv “kichkina odam” obrazining ijtimoiy tengsizlik, sinfiy tafovut va degumanizatsiya jarayonlari bilan bog‘liqligini yoritishga imkon berdi. Psixologik yondashuv esa qahramonlarning ichki iztiroblari, ruhiy kechinmalari va ekzistensial holatlarini tahlil qilishda qo‘llanildi.

Nazariy asos sifatida V.Belinskiy, G.Plexanov, rus realizmi va zamonaviy adabiyotshunoslik konsepsiyalariga tayanildi. Badiiy matnlar kontekstual tahlil asosida o‘rganilib, ularning tarixiy, madaniy va estetik muhit bilan aloqadorligi izohlandi.

Xulosa qilib aytganda, “Kichkina odam” obrazi adabiyotshunoslikda faqatgina ijtimoiy tip emas, balki insonparvarlik g‘oyalarining badiiy timsolidir. U jamiyatning chekka qatlamlarida yashab, ko‘r-ko‘rona toqat bilan emas, balki ichki iztirob va botiniy kurash orqali o‘z qadriyatini saqlab qolishga urinadigan inson timsolidir. Mazkur obrazning adabiy tahlili orqali nafaqat tarixiy-ijtimoiy o‘zgarishlar, balki insoniyatning ruhiy qiyofasi ham ochib beriladi. Shu bois “kichkina odam” konsepsiyasi zamonaviy adabiy tafakkurda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Карамзин Н.М. Бедная Лиза. М., “Эксмо”, 2007, 5–25-бетлар.

(2). Достоевский Ф.М. Бедные люди. СПб., Лениздат, 1986, 7–98-бетлар.

(3). Mansfield K. The Life of Ma Parker. The Garden Party and Other Stories. London, Penguin Classics, 2007, 72–79-betlar.

(4). Qahhor A. Qo‘shni. Tanlangan asarlar. 3-jild, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 1980, 85–96-betlar.

(5). Поспелов Г.Н. Теория литературы. М., “Просвещение”, 1978, 132–145-бетлар.

(6). Назаров К. Адабиётшуносликка кириш. Тошкент, “Ўқитувчи”, 2002, 47–62-бетлар.

(7). Эргашев Ш. Адабиётшунослик назарияси. Тошкент, “Fan”, 2008, 88–104-бетлар.

(8). Mambetov T. “Kichkina odam” obrazining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. “Filologiya” ilmiy jurnali, 2022, 3-son, 23–30-бетлар.

Ibragimov Xayrulla Hamdamovich (O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, f.f.f.d. (PhD); xayrullaibragimov773@gmail.com)

ESHQOBIL SHUKUR IJODIDA FOLKLOR VA ZAMONAVIYLIK UYG‘UNLIGIDA YANGI BIRLIKLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Eshqobil Shukur ijodida folklor an’analari va zamonaviy badiiy tafakkur uyg‘unlashuvi natijasida yaratilgan yangi poetik birliklarning estetik mohiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy til, estetika, ta’sirchanlik, xalqona ruh, falsafiy tafakkur, semantika, mifologik obrazlar, metafora, folklor, doston, qo‘shiq, ertak, maqol.*

Ибрагимов Хайрулла Хамдамович (доцент Джизакского филиала Национального университета Узбекистана, доктор философии (PhD)

НОВОЕ ЕДИНСТВО В ГАРМОНИИ ФОЛЬКЛОРА И СОВРЕМЕННОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЭШКОБИЛА ШУКУРА

Аннотация. *В данной статье анализируется эстетическая сущность новых поэтических единиц, созданных в результате сочетания фольклорных традиций и современной художественной мысли в творчестве Эшкобила Шукура.*

Ключевые слова: *художественный язык, эстетика, выразительность, народный дух, философская мысль, семантика, мифологические образы, метафора, фольклор, эпос, песня, сказка, пословица.*

Ibragimov Khayrulla Hamdamovich (Associate Professor, Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD)

NEW UNITY IN THE HARMONY OF FOLKLORE AND MODERNITY IN THE WORK OF ESHQOBIL SHUKUR

Annotation. *This article analyzes the aesthetic essence of new poetic units created as a result of the combination of folklore traditions and modern artistic thinking in the work of Eshqobil Shukur.*